

## MUBORAK OYDA MUQADDAS QADAMJO BO'YLAB

Hammamizga ma'lumki, ayni kunlarda vatanimiz, umuman olganda, butun dunyo musulmonlari muborak Ramazon oyini qizg'in o'tkazishmoqda. Birin-ketin yurtimiz masjidlarida xatmonalar bo'lib o'tmoqda. Ayni shunday mahalda 20 may kuni "Gidromelioratsiya" fakulteti ikkinchi bosqich "Meliorativ gidrogeologiya" yo'nalishi 215 - guruh talabalari hamda guruh murabbiysi S. Qodirov tomonidan "Zangiota" ziyoratgohiga tashrif uyushtirildi. Maqbara ichkarisida Muqaddas Qur'ondan tilovat qilingach, majmua xodimi maqbara hamda Zangiota hazratlarining hayoti haqida muxtasar ma'lumot berib o'tdi.



"Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrası assistenti S.M.Qodirov axboroti  
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov